



## INGLIZ TILI GIDROMETEOROLOGIYA TERMINOLOGIYASIDA AHTONIMIYA: STRUKTURAVIY, SEMANTIKA VA KOGNITIV JIHLTLAR

**Qurbonova Ozoda Ravshanovna,**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti (PhD).

Tel.: +998942162295

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v18iC.1728>

### MAQOLA HAQIDA/O STAT'YE

**Qabul qilindi:** 16-iyun 2026-yil

**Tasdiqlandi:** 18-iyun 2026-yil

**Jurnal soni:** 18-C

**Maqola raqami:** 18

### KALIT SO'ZLAR/КЛЮЧЕВЫЕ

#### СЛОВА

gidrometeorologiya, terminologiya, antonimiya, strukturaviy-semantik tahlil, binar oppozitsiya, vektorli antonimlar, tarjima muammolari

### ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada ingliz tili gidrometeorologik terminologiyasida antonimiya (qarama-qarshilik) hodisasi, uning strukturaviy-semantik tabiati va kognitiv xususiyatlari tadqiq etiladi. Gidrometeorologiya dinamik va doimo o'zgaruvchan tabiiy jarayonlarni o'rganishi sababli, uning terminlar tizimida antonimik juftliklar (masalan, inflow/outflow, condensation/evaporation) muhim o'rin tutadi. Maqolada ushbu terminlar leksik-morfologik (prefiksli antonimlar) va semantik (binar, gradual, vektor-yo'nalishli) jihatdan tasniflanadi hamda ularning tabiatdagi jismoniy muvozanat (massa va energiya balansi) qonuniyatlarini ifodalashdagi roli ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari gidrometeorologiyaga oid ilmiy matnlarni ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish samaradorligini oshirish va ikki tilli sohaviy lug'atlarni tizimlashtirishda amaliy ahamiyatga ega. Mazkur tadqiqot doirasida gidrometeorologik terminologiyada antonimiya hodisasining faqat leksik-semantik emas, balki kognitiv-modelyatsion xususiyatlari ham alohida e'tibor markaziga olingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, antonimik juftliklar tabiiy jarayonlarning fazoviy-vaqtli dinamikasini ifodalashda muhim lingvistik vosita bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, gidrometeorologik terminlarda antonimiya ko'pincha jarayonlarning yo'nalishli harakati va energetik almashinuvi bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Bu esa ularning nafaqat qarama-qarshi ma'no ifodalashini, balki tizimli bog'liqlik asosida ishlashini ham tasdiqlaydi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bunday terminologik juftliklar ilmiy matnlarda konseptual aniqlikni oshirish va murakkab tabiiy hodisalarni soddalashtirilgan modelda ifodalashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, tadqiqot ingliz tilidagi gidrometeorologik terminlarni o'zbek tiliga tarjima qilish jarayonida antonimik munosabatlarni saqlash muhimligini ko'rsatdi. Bu ilmiy kommunikatsiyada aniqlikni ta'minlash va terminologik bir xillikni saqlash uchun zarur omil hisoblanadi.

### ABOUT THE PAPER

**Accepted:** 16 June 2026

**Approved:** 18 June 2026

**Volume:** 18-C

**Paper number:** 18

### KEYWORDS

hydrometeorology, terminology, antonymy, structural-semantic analysis, binary opposition, vector antonyms, translation issues

### ANNOTATION

This article explores the phenomenon of antonymy in English hydrometeorological terminology, examining its structural-semantic nature and cognitive features. Since hydrometeorology studies dynamic and constantly changing natural processes, antonymous pairs (e.g., inflow/outflow, condensation/evaporation) occupy a central place in its terminological system. The article classifies these terms from lexical-morphological (prefixed antonyms) and semantic (binary, gradual, vector-directional) perspectives, highlighting their role in representing physical balance laws (mass and energy balance) in nature. The findings of the study are of practical significance for improving the efficiency of translating scientific texts in hydrometeorology from English into Uzbek and for systematizing bilingual specialized dictionaries. In this study, not only lexical-semantic, but also cognitive-modeling features of the phenomenon of antonymy in hydrometeorological terminology were given special attention. The results of the study show that antonymic pairs serve as an important linguistic tool in expressing the spatio-temporal dynamics of natural processes. Also, antonymy in hydrometeorological terms is often manifested in connection with the directional movement and energy exchange of processes. This confirms that they not only express opposite meanings, but also function on the basis of systemic dependence. The results show that such terminological pairs serve to increase conceptual clarity in scientific texts and express complex natural phenomena in a simplified model. In addition, the study showed the importance of preserving antonymic relationships in the process of translating hydrometeorological terms from English into Uzbek. This is a necessary factor for ensuring accuracy in scientific communication and maintaining terminological uniformity.

**Kirish.** Tilshunoslikda antonimiya hodisasi qadimdan tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelgan. Ayniqsa, bu hodisa leksik-semantik tizimda o'ziga xos o'ringa ega. Tilda antonim so'zlar ma'no jihatdan bir-biriga zidlikni bildiradi. Ular tildagi juftlik prinsipining ifodasi sifatida qaraladi.

O'zbek tilida antonimlik hodisasi keng tushuncha bo'lib, butun bir asar mazmunini ochib berish; asardagi voqealar tizimini aniqroq, ravshanroq ko'rsatish; biror bir qahramonni, narsalarni, joylarni ijobiy yoki salbiy sifatlarini ko'rsatishning eng samarali usulidir.

Antonim atamasi yunoncha so'zdan olingan bo'lib, u "qarama-qarshi nom", "zid nom" degan ma'nolarni bildiradi. Demak, antonimlar tillardagi qarama-qarshi ma'noni anglatuvchi so'zlardir. Dunyoda hamma narsa juftlik prinsipiga asoslanganligi ma'lum. Juftlik borligi uchun dunyoda taraqqiyot bor. Lekin har qanday juftlik ham taraqqiyot, rivojlanishning asosi bo'la olmaydi. Faqat bir-birini bir vaqtning o'zida ham inkor qiladigan, ham taqozo qiladigan juftliklarga rivojlanish va muvozanat asosi bo'la oladi. Antonim so'zlar tilni leksik yuzasidagi ana shunday juftlikning oddiy namunasidir. Antonimlik xususiyati bu so'zlarning bir-biriga qarshi bo'lishiga aytildi.

Har qanday soha terminologiyasi o'zaro bog'liq bo'lgan leksik-semantik tizimdan iborat. Gidrometeorologiya — murakkab tabiiy jarayonlarni (suv aylanishi, atmosfera hodisalari, iqlim o'zgarishi)

o'rganuvchi fan bo'lganligi sababli, undagi tushunchalar ko'pincha juftlik yoki ziddiyat asosiga quriladi. Antonimiya hodisasi bu tizimda markaziy o'rin tutadi, chunki tabiatdagi ko'plab hodisalar (masalan, bug'lanish va kondensatsiya, suv ko'tarilishi va pasayishi) bir-biriga qarama-qarshi xarakterga ega.

**Adabiyotlar tahlili.** Antonimiya hodisasi tilshunoslikda qadimdan o'rganilib kelinayotgan, leksik-semantik tizimning muhim komponentlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Mazkur tadqiqot uchun tanlangan adabiyotlar turli yondashuvlarni — umumiy tilshunoslik, semantik tahlil, terminologiya va sohaviy (gidrometeorologik) lug'atshunoslikni qamrab oladi.

M. T. Irsulovning "Tilshunoslikka kirish" asarida antonimiya tilning asosiy semantik kategoriyalaridan biri sifatida izohlanadi. Muallif antonimlarni faqat oddiy qarama-qarshilik emas, balki bir-birini inkor qiluvchi va shu bilan birga o'zaro bog'liq bo'lgan juftliklar sifatida talqin qiladi [1, 112-b]. Ushbu yondashuv gidrometeorologik terminologiyada kuzatiladigan inflow/outflow, evaporation/condensation kabi juftliklarning nazariy asosini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Mazkur mamba antonimiyaning tizimli xususiyatini ochib berishi bilan tadqiqotning nazariy bazasini shakllantiradi.

K. A. Muzaffarovning tadqiqotida antonimiyaning matn semantikasi va stilistik imkoniyatlari yoritilgan bo'lib, antonimlar badiiy va ilmiy

matnda kontrastni kuchaytirish, fikrni aniqlashtirish va strukturaviy yaxlitlikni ta'minlash vositasi sifatida baholanadi [2, 13-97]. Ushbu qarash ilmiy terminologiyada ham antonimlarning faqat leksik birlik emas, balki konseptual qarama-qarshilikni ifodalovchi vosita ekanligini asoslaydi. Gidrometeorologiya matnlarida "flood-drought" yoki "stable-unstable" kabi juftliklar aynan shunday konseptual kontrastni hosil qiladi.

A. A.Xasanov ishida antonimiya hodisasi semantik asimmetriya va kognitiv qarama-qarshilik nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi [3, 117-b]. Muallif antonimlarni inson tafakkurida dualistik tasnif (issiq-sovuq, quruq-nam, yuqori-past) asosida shakllanuvchi kognitiv model sifatida izohlaydi. Ushbu yondashuv gidrometeorologik terminologiyada tabiiy jarayonlarning (bug'lanish-kondensatsiya, infiltratsiya-eksfiltratsiya) kognitiv modellashtirilishini tushunishga imkon beradi. Shuningdek, semantik asimmetriya hodisasi terminlar o'rtasidagi to'liq tenglik emas, balki funksional bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

R.Shukurov ning "O'zbek tilida antonimlar" asari tadqiqot uchun muhim tasnifiy asos bo'lib xizmat qiladi [4, 32-42 b]. Muallif antonimlarni strukturaviy jihatdan bir necha guruhlariga ajratadi: tub so'z-tub so'z, tub so'z-yasama so'z, yasama so'z-yasama so'z, prefiksli va suffiksli birliklar o'rtasidagi qarama-qarshiliklar. Ushbu klassifikatsiya gidrometeorologik terminologiyadagi murakkab morfologik tuzilmalarni (denitrification-nitrification, infiltration-exfiltration) tizimli tahlil qilishga imkon beradi. Ayniqsa, prefiksli antonimlar (in-/out-, ex-/in-) tabiiy jarayonlardagi yo'nalish va harakatni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

World Meteorological Organization tomonidan chop etilgan "International Glossary of Hydrology" esa tadqiqotning asosiy terminologik bazasini tashkil etadi [5, 461-b]. Ushbu manba gidrometeorologik terminlarning aniq ilmiy ta'riflarini berishi bilan birga, ularning semantik munosabatlarini ham ochib beradi. Xususan, evaporation-condensation, ablation-accumulation, flood-drought kabi juftliklar suv va energiya balansining tabiiy modelini ifodalaydi. Mazkur glossariy ilmiy tarjima jarayonida terminlarning bir xilda qo'llanilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

American Meteorological Society glossariysi esa zamonaviy meteorologik terminlarning ingliz tilidagi standart ta'riflarini beradi va ularning xalqaro ilmiy kommunikatsiyadagi o'rmini belgilaydi [6]. Ushbu mamba ayniqsa "stable-unstable wave", "inflow-outflow" kabi dinamik jarayonlarni ifodalovchi antonimik juftliklarning funksional tahlilini amalga oshirishda muhimdir. U terminlarning real ilmiy kontekstdagi qo'llanilishini ko'rsatib beradi va ularning semantik chegaralarini aniqlashtiradi.

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, antonimiya faqat lingvistik hodisa emas, balki kognitiv va ilmiy konseptlarni ifodalovchi universal mexanizmdir. Gidrometeorologik terminologiyada esa u tabiiy jarayonlarning muvozanatli tizimini (massaning kirish

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda ingliz tili gidrometeorologik terminologiyasida antonimiya hodisasini o'rganishda tavsifiy (deskriptiv), qiyosiy-tahliliy va strukturaviy-semantik metodlardan foydalanildi. Tadqiqot materiali sifatida World Meteorological Organization va American Meteorological Society tomonidan taqdim etilgan rasmiy glossariylar hamda ilmiy terminologik lug'atlar tanlab olindi. Tahlil jarayonida terminlar antonimik juftliklar sifatida ajratildi va ularning morfologik tuzilishi (tub, yasama, prefiksli va suffiksli birliklar), semantik munosabatlari hamda kognitiv asoslari o'rganildi. Shuningdek, qiyosiy metod yordamida ingliz tilidagi gidrometeorologik terminlarning o'zbek tilidagi tarjima ekvivalentlari tahlil qilindi. Strukturaviy yondashuv orqali antonimlarning tizim ichidagi o'zaro bog'liqligi aniqlanib, ularning tabiiy jarayonlarni ifodalashdagi funksional roli ochib berildi.

**Natijalar.** Ma'lumki, antonimlar asosan ot, sifat, ravish va fe'l turkumiga xos so'zlardan hosil bo'ladi. R.Shukurovning "O'zbek tilida antonimlar" asarida tuzilish jihatidan antonimik juftliklarning (variantlari bilan) 30 dan ortiq turi borligini dalolat qilgan. Maqolamizda R.Shukurovning tasniflaridan foydalanib, ingliz tili gidrometeorologiyasidagi antonim juftliklari aniqlandi [4, 32-42 b]. Jumladan:

Tub so'z — tub so'z sxemasidagi antonimlar: Freeze (muzlamov) ↔ melt (erimov) Freeze (Muzlash) – suvning suyuq holatdan qattiq holatga (muzga) o'tish jarayoni bo'lib, bunda suv o'z ichki energiyasini (yashirin issiqlikni) atrof-muhitga ajratib beradi. Melt (Erish)-muz yoki qorning qattiq holatdan suyuq holatga (suvga) o'tish jarayoni bo'lib, bunda modda atrof-muhitdan ma'lum miqdorda issiqlik energiyasini (yashirin erish issiqligini) yutadi; arid (quruq) ↔ humid(nam) "Arid (quruq) – yog'indan ko'ra bug'lanish ko'p bo'lgan o'ta quruq iqlim" va "humid (nam) – namlik darajasi yuqori bo'lgan sersuv iqlim.

Tub so'z — yasama so'z sxemasidagi antonimlar: Flood (suv toshqini) ↔ Drought (qurg'oqchilik) "Flood (-1) Rise, usually brief, in the water

level of a stream or water body to a peak from which the water level recedes at a slower rate. (2) Relatively high flow as measured by stage height or discharge" termini va ta'rifini "suv toshqini – (1) Oqim (daryo) yoki suv obyektida suv sathining odatda qisqa muddatli ko'tarilishi bo'lib, u ma'lum bir cho'qqiga (pik nuqtasiga) yetadi va so'ngra suv sathi sekinroq sur'atda pasayadi. (2) Suv sathining balandligi yoki suv sarfi (miqdori) bilan o'lchanadigan nisbatan yuqori oqim" tarzida o'g'irish lozim. [5, 124-b] "Drought-prolonged absence or marked deficiency of precipitation" termini va uning ta'rifini "Qurg'oqchilik-atmosfera yog'inlarining uzoq muddat davomida yo'qligi (yog'masligi) yoki ularning sezilarli darajadagi yetishmovchiligi (tanqisligi)" deb tarjima qilish joiz. Stable (barqaror) ↔ unstable (beqaror). "Stable wave-generally, any wave that exhibits stable motion and is not an unstable wave" termini va ta'rifini o'zbek tilida "Barqaror to'lqin-odatda, barqaror harakat qiladigan va beqaror to'lqin bo'lmagan har qanday to'lqin" deb berish lozim. [6 <https://glossary.ametsoc.org>] "Unstable wave-a wave motion with an amplitude that increases with time, or total energy that increases at the expense of its environment" termini va unga berilgan ta'rifni "Beqaror to'lqin-amplitudasi vaqt o'tishi bilan ortib boradigan yoki umumiy energiyasi atrof-muhit hisobidan ko'paydigan to'lqin harakati" deb tarjima qilish joiz [6].

Yasama so'z — yasama so'z sxemasidagi antonimlar: asosan bir xil o'zakli so'zlardan, shuningdek, turli o'zakli so'zlardan tashkil topishi mumkin. Bu sxemada bir xil yoki turli o'zakli so'zlardan hosil bo'lgan antonimlarni yasovchi qo'shimchalarning turiga ko'ra 4 gruppaga bo'lish mumkin:

a) har ikkala komponenti suffiksli bo'lgan turli o'zakli antonimlar: Evaporation (Bug'lanish) ↔ Condensation (Kondensatsiya). "Evaporation-process by which water changes from liquid to vapour at a temperature below boiling point" termini va unga berilgan ta'rifni "Bug'lanish-suvning qaynash haroratidan (nuqtasidan) past haroratda suyuq holatdan bug' holatiga o'tish jarayoni" deb tarjima qilish mumkin [5, 114-b]. "Condensation-transition from the vapour state to the liquid state" termini va ta'rifini "Kondensatsiya -gaz (bug') holatidan suyuq holatga o'tish" deya o'g'irish joiz [5, 60-b].

Ablation (ablyatsiya)↔accumulation (akkumulyatsiya) "Ablation-combined processes (such as melting, sublimation, evaporation or calving) which remove snow or ice from a glacier or from a snowfield; also used to express the quantity lost by these processes" termini va unga berilgan ta'rifni "Ablyatsiya — muzlik yoki qor maydonidan qor yoki muzni yo'qotuvchi bir qator jarayonlar (masalan, erish, sublimatsiya, bug'lanish yoki muz bo'laklarining ajralib chiqishi). Shuningdek, bu atama shu jarayonlar natijasida yo'qotilgan massa yoki hajmi (miqdorni) ham bildiradi" deya ag'darish ketrak [5]. "Accumulation (of snow and ice) - quantity of snow, or any other form of water in the solid state, which is added to a glacier, floating ice or a snow cover" termini va ta'rifini "Qor va muzning to'planishi/akkumulyatsiyasi – muzlikka, suzuvchi muzga yoki qor qoplamiga qo'shiladigan qor yoki boshqa qattiq holatdagi suv miqdori" deb o'g'irish mumkin [5, 3-b].

b) bir komponenti ham suffiks, ham prefiksli, ikkinchisi suffiksli: abiotic (abiotik)↔biotic (biotik). "Abiotic-pertaining to an ecosystem where life is absent" termini va uning ta'rifini "Abiotik-hayot mavjud bo'lmagan ekotizimga oid" deb o'g'irish zarur [5]. "Biotic-applied to the living components of the ecosystem, as distinct from the abiotic physical and chemical components" termini va ta'rifini "Biotik -ekotizimning tirik tarkibiy qismlariga taalluqli bo'lib, abiotik (jonsiz) fizik va kimyoviy tarkibiy qismlardan farqlanadi" deya ag'darish lozim [5, 37-b]. "Denitrification-conversion of nitrate or nitrite to gaseous products, mainly nitrogen and/or nitrous oxide, through the action of a certain type of bacteria under anaerobic or aerobic conditions" termini va ta'rifini "Denitrifikatsiya – nitrat (NO<sub>3</sub>-) yoki nitrit (NO<sub>2</sub>-)ning gazsimon mahsulotlarga (asosan azot – N<sub>2</sub> va/yoki azot oksidi – N<sub>2</sub>O) aylanishi jarayoni bo'lib, bu ma'lum denitrifikator bakteriyalar tomonidan anaerob yoki ba'zi hollarda aerob sharoitlarda amalga oshiriladi" deb tarjima qilish mumkin [5, 79-80 b].

"Nitrification-oxidation of nitrogenous matter into nitrites or nitrates by micro-organisms" termini va ta'rifini esa "Nitrifikatsiya — azotli birikmalar (asosan ammiak yoki ammoniy ionlari)ning mikroorganizmlar tomonidan nitrit (NO<sub>2</sub>-) va keyin nitratlarga (NO<sub>3</sub>-) oksidlanishi jarayonidir" deya o'g'irish lozim [5, 232-b]

d) har ikkala komponenti prefiksli bo'lgan antonimlar: inflow (kiruvchi oqim)↔outflow (chiquvchi oqim) "Inflow -flow of water into a receiving water body" termini va uning ta'rifini o'zbek tilida quyidagicha izohlash joiz: "Kiruvchi oqim-qabul qiluvchi suv ob'ektiga suvning kirishi" [5, 184-b]. "Outflow -flow of water out of a hydrosystem" termini va ta'rifini esa "Chiquvchi oqim-gidrosistemadan suvning chiqishi" deb berish lozim [5, 240-b].

e) har ikkala komponenti ham prefiksli, ham suffiksli bo'lgan antonimlar: infiltration (infiltratsiya) ↔ exfiltration (eksfiltratsiya) “Infiltration-low of water through the soil surface into a porous medium” termini va ta'rifini “Infiltratsiya- suvning tuproq yuzasidan g'ovak qatlamga singib o'tishi” sifatida tarjima qilish zarur [5, 182-b]. “Exfiltration-rising of soil moisture due to capillary forces, caused by a dry soil surface” termini va uning ta'rifini “Exfiltratsiya-kapillyar kuchlar ta'sirida, yuzaki quruq tuproq sababli tuproq namligining tepaga ko'tarilishi” deb berish lozim.

**Muhokama.** Ingliz tili gidrometeorologik terminologiyasida antonimiya hodisasini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, bu hodisa oddiy leksik qarama-qarshilikdan tashqari, murakkab kognitiv va tizimli-semantik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Gidrometeorologiya tabiiy jarayonlarning uzluksiz dinamikasini o'rganadigan fan bo'lgani uchun undagi asosiy tushunchalar ko'pincha bir-biriga nisbatan qarama-qarshi holatlar orqali ifodalanadi. Bu esa terminologik tizimda antonimik juftliklarning barqaror va tizimli xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni tasdiqlaydiki, gidrometeorologik terminlarda antonimiya ko'pincha tabiiy muvozanat qonuniyatlarini ifodalash vositasi sifatida xizmat qiladi. Masalan, evaporation–condensation, inflow–outflow, accumulation–ablation kabi juftliklar suv va energiya aylanishining ikki qarama-qarshi, biroq o'zaro bog'liq bosqichini aks ettiradi. Bu holat antonimiyani faqat til birliklari darajasida emas, balki real dunyo jarayonlarining lingvistik modeli sifatida ham talqin qilish imkonini beradi.

Shuningdek, tahlil natijalari antonimlarning morfologik tuzilishi ularning semantik funksiyasi bilan bevosita bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Prefiksli antonimlar (in-/out-, ex-/in-, un-/st-) asosan yo'nalish, holat o'zgarishi yoki jarayon intensivligini ifodalashda faol qo'llaniladi. Masalan, inflow–outflow juftligi suv oqimining kirish va chiqish yo'nalishini bildirsa, stable–unstable juftligi atmosferadagi jarayonlarning barqarorlik darajasini ifodalaydi. Bu esa morfologik vositalar antonimik qarama-qarshilikni shakllantirishda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Kognitiv yondashuv nuqtayi nazaridan qaralganda, antonimik juftliklar inson tafakkurida tabiiy hodisalarni dualistik tarzda tasniflashga asos bo'ladi. Ya'ni, inson ongida “issiq–sovuq”, “quruq–nam”, “yuqori–past” kabi asosiy konseptlar orqali murakkab gidrometeorologik jarayonlar soddalashtiriladi va tushunarli modelga keltiriladi. Shu jihatdan antonimiya nafaqat til hodisasi, balki konseptual tizimni tashkil etuvchi kognitiv mexanizm sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlanadiki, gidrometeorologik terminologiyada antonimlar ko'pincha gradatsion yoki vektor xarakterga ega bo'ladi. Masalan, evaporation–condensation juftligi faqat qarama-qarshi holatlarni emas, balki moddaning bir fazadan ikkinchisiga o'tish jarayonini ham ifodalaydi. Bu esa antonimiyaning statik emas, balki dinamik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Irisqulov M. T. Tilshunoslik kirish. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2026, 256 b.
2. Muzaffarov K. A. “Mahub ul-qulub”da kontekstual antonimiyaning ifodalanishi. Worldly knowledge international journal of scientific researchers  
ISSN: 3030-332X Impact Factor (Research bib) -7,293, 2024, 1397-1399 b.
3. Xasanov A.A. Antonimiya hodisasining lingvistik talqini: nazariy yondoshuvlar va semantik asimmetriya. International Educators Conference Hosted online from Toronto, Canada, 2025, 117-122 b.
4. Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. –Тошкент: Фан нашрети, 1977. 144 б.

Shuningdek, tarjima jarayonida antonimik terminlar alohida e'tibor talab qiladi. Chunki ilmiy matnlarda ularning noto'g'ri talqini konseptual xatolarga olib kelishi mumkin. Masalan, infiltration–exfiltration juftligining aniq tarjimasini suvning tuproqdagi harakat yo'nalishini to'g'ri anglash uchun muhimdir. Shu sababli terminlarni tarjima qilishda faqat lingvistik ekvivalent emas, balki fizik jarayonning mohiyati ham hisobga olinishi lozim.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gidrometeorologik terminologiyada antonimiya tizimli, kognitiv va funksional jihatdan muhim rol o'ynaydi. U ilmiy bilimlarni ifodalashda muvozanat, qarama-qarshilik va jarayonlarning o'zaro bog'liqligini lingvistik shaklda aks ettiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Terminologik antonimiya — tilshunoslik va aniq fanlar kesishmasidagi murakkab leksik hodisadir. Gidrometeorologiya kabi dinamik va doimo harakatdagi jarayonlarni o'rganuvchi fanlarda antonimlar fanning fundamental qonunlarini (masalan, suv va energiya balansini) ilmiy ifodalash uchun bosh mezon bo'lib xizmat qiladi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot ingliz tili gidrometeorologik terminologiyasida antonimiya hodisasining strukturaviy, semantik va kognitiv xususiyatlarini yoritishga bag'ishlandi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, gidrometeorologik terminlar tizimida antonimik juftliklar tasodifiy emas, balki tabiiy jarayonlarning o'zaro muvozanat va qarama-qarshilik tamoyiliga asoslangan holda shakllangan barqaror leksik birliklar hisoblanadi. Antonimiya gidrometeorologik terminologiyada faqat lingvistik qarama-qarshilikni emas, balki real fizik jarayonlarning (suv aylanishi, energiya almashinuvi, atmosfera hodisalari) dialektik bog'liqligini ham ifodalaydi. Xususan, evaporation–condensation, inflow–outflow, accumulation–ablation kabi juftliklar tabiatdagi uzluksiz harakat va muvozanat qonuniyatlarini lingvistik model sifatida aks ettiradi. Tadqiqot natijalari antonimlarning morfologik tuzilishi ularning semantik vazifasi bilan bevosita bog'liqligini ham ko'rsatdi. Prefiksli va suffiksli antonimik birliklar jarayon yo'nalishi, holat o'zgarishi hamda intensivlik darajasini ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, kognitiv yondashuv antonimiyani inson tafakkurida tabiiy hodisalarni dualistik tasniflash va konseptual soddalashtirish vositasi sifatida izohlash imkonini beradi. Shuningdek, gidrometeorologik terminlarni tarjima qilish jarayonida antonimik juftliklarning semantik aniqligini saqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki noto'g'ri tarjima ilmiy mazmunning buzilishiga va konseptual xatolarga olib kelishi mumkin. Shu bois terminlarni o'zbek tiliga o'girishda nafaqat lingvistik ekvivalentlik, balki fizik jarayonlarning mohiyati ham inobatga olinishi lozim.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari antonimiya hodisasining gidrometeorologik terminologiyada tizimli, kognitiv va funksional ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. U ilmiy bilimlarni ifodalashda qarama-qarshilik va muvozanatni aks ettiruvchi asosiy lingvistik vositalardan biri sifatida muhim o'rin tutadi.

5. World meteorological Organization. International glossary of Hydrology -Geneva., 2012, p.461

6. <https://glossary.ametsoc.org/wiki/>

7. Kapantzoglou, M., Magallon, J., & Auza B, A. (2026). Language Proficiency and Narrative Macrostructure in Spanish–English Bilingual Children. American Journal of Speech-Language Pathology, 1-15.

8. Deuchar, M. (2025). Standing on the shoulders of giants: Quantitative approaches to the identification of community norms in code-switching. Isogloss. Open Journal of Romance Linguistics, 11(4), 1-18.